

HUDUDIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINI OPTIMAL JOYLASHTIRISHNING MINTAQAVIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Nuritdinov Botir Kodirxanovich

Namangan davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: nbotir7676@mail.ru
+998772554288

Annotatsiya

Mazkur maqolada hududiy rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarini joylashtirish samaradorligini oshirishning mintaqaviy mexanizmlari va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati tizimli yondashuv asosida tadqiq etilgan. Sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning muhim omili sifatida baholanib, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, transport-logistika va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirish, hududlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash hamda sanoat kooperatsiyasini kengaytirish orqali iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda sanoat korxonalarini joylashtirish samaradorligini belgilovchi tabiiy-resurs salohiyati, mehnat bozori imkoniyatlari, infratuzilmaviy ta'minlanganlik, investitsion muhit va innovatsion klasterlar faoliyati kabi omillarning mintaqalar raqobatbardoshligini oshirishdagi o'rni asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari asosida sanoatni hududiy tashkil etish tizimini takomillashtirish va mintaqalarning sanoat salohiyatidan yanada samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mintaqaviy iqtisodiyot, sanoat korxonalari, hududiy joylashtirish, joylashtirish samaradorligi, mintaqaviy mexanizmlar, hududiy rivojlanish, sanoat infratuzilmasi, investitsion muhit, innovatsion klasterlar, mintaqaviy raqobatbardoshlik.

Аннотация

В данной статье на основе системного подхода исследуются региональные механизмы повышения эффективности размещения промышленных предприятий в условиях территориального развития и их значение для социально-экономического роста регионов. Территориальное размещение промышленных предприятий рассматривается как один из ключевых факторов устойчивого развития региональной экономики, обеспечивающий более эффективное использование производственных ресурсов, совершенствование транспортно-логистической и инженерной инфраструктуры, укрепление межтерриториальных экономических связей и развитие промышленной кооперации. В исследовании обосновано влияние таких факторов, как природно-ресурсный потенциал, возможности рынка труда, уровень инфраструктурной обеспеченности, инвестиционный климат и деятельность инновационных кластеров, на повышение эффективности размещения промышленных предприятий и конкурентоспособности регионов. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации, направленные на

совершенствование системы территориальной организации промышленности и более эффективное использование промышленного потенциала регионов.

Ключевые слова: региональная экономика, промышленные предприятия, территориальное размещение, эффективность размещения, региональные механизмы, территориальное развитие, промышленная инфраструктура, инвестиционный климат, инновационные кластеры, региональная конкурентоспособность.

Abstract

This article examines the regional mechanisms for improving the efficiency of industrial enterprise location under the conditions of territorial development using a systematic approach. The territorial distribution of industrial enterprises is considered a key factor in ensuring sustainable regional economic development through the efficient use of production resources, the improvement of transport, logistics, and engineering infrastructure, the strengthening of interregional economic linkages, and the expansion of industrial cooperation. The study analyzes the role of natural resource potential, labor market capacity, infrastructure development, investment climate, and the performance of innovation clusters in enhancing the efficiency of industrial location and improving regional competitiveness. Based on the research findings, scientific and practical recommendations are proposed to improve the territorial organization of industry and promote the more efficient utilization of regional industrial potential.

Keywords: regional economics, industrial enterprises, territorial location, location efficiency, regional mechanisms, territorial development, industrial infrastructure, investment climate, innovation clusters, regional competitiveness.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv, sanoat ishlab chiqarishining transformatsiyalashuvi va hududlar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi sharoitida sanoat korxonalarini hududiy jihatdan oqilona joylashtirish mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi ustuvor omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Sanoat korxonalarining joylashuvi nafaqat ishlab chiqarish xarajatlari va logistika samaradorligiga, balki hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi, bandlik darajasi, infratuzilma rivoji, innovatsion salohiyati hamda iqtisodiy o'sish sur'atlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois zamonaviy mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasida sanoat korxonalarini optimal joylashtirish masalasi hududiy rivojlanish siyosatining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat ishlab chiqarishining ayrim hududlarda haddan tashqari konsentratsiyalashuvi hududlararo iqtisodiy tafovutlarning kuchayishiga, resurslardan foydalanish samaradorligining pasayishiga hamda transport-logistika xarajatlarining ortishiga sabab bo'ladi. Aksincha, hududlarning tabiiy-resurs, mehnat, infratuzilma va bozor salohiyatini kompleks baholash asosida sanoat korxonalarini oqilona joylashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham hududlarni kompleks rivojlantirish, sanoatni diversifikatsiya qilish, yangi sanoat zonalarini tashkil etish, ishlab chiqarishni hududiy mutanosib rivojlantirish hamda investitsiyalarni samarali joylashtirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq ayrim hududlarda sanoat ishlab chiqarishining notekis joylashuvi, ishlab chiqarish quvvatlarining markazlashuvi, infratuzilma ta‘minotidagi tafovutlar, xomashyo va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligining yetarli darajada emasligi sanoatni hududiy tashkil etishning mavjud mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, sanoat korxonalarini joylashtirishda hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, transport-kommunikatsiya imkoniyatlari, ekologik cheklovlar, investitsion muhit va innovatsion salohiyatni integrallashgan holda hisobga olish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasida sanoatni joylashtirish masalalari klassik joylashtirish nazariyalari bilan bir qatorda yangi iqtisodiy geografiya, o‘shish qutblari nazariyasi, klasterlashuv konsepsiyasi va aglomeratsiya iqtisodiyoti yondashuvlari asosida izohlanadi. Biroq hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, institutsional muhit, infratuzilmaviy ta‘minlanganlik va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida sanoat korxonalarini optimal joylashtirishning mintaqaviy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi hududiy rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarini optimal joylashtirishning nazariy-uslubiy asoslarini tahlil qilish, ularning hududiy joylashuviga ta‘sir etuvchi iqtisodiy determinantlarni aniqlash hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi mintaqaviy mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqarishdan iborat. Tadqiqot natijalari hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarishini oqilona joylashtirish, hududiy nomutanosibliklarni qisqartirish, investitsiya resurslaridan samarali foydalanish va mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi bilan ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Sanoat korxonalarining hududiy joylashtirilishi mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy barqarorligini, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini hamda iqtisodiy o‘shishning hududlar bo‘yicha muvozanatli rivojlanishini ta‘minlaydigan strategik mexanizmdir. Hozirgi globallashtirish sharoitida sanoatni hududiy tashkil etish masalasi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, logistika zanjirlarini qisqartirish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash bilan bevosita bog‘liqdir. Xalqaro miqyosda bu masala “sanoat joylashtirish nazariyasi” (Industrial Location Theory) doirasida tahlil qilinadi, u Alfred Veberning ishlab chiqarish xarajatlari va transport xarajatlari nisbatiga asoslangan modelidan boshlab zamonaviy “aglomeratsiya iqtisodiyoti” konsepsiyasigacha rivojlanib kelgan [1]. Bunday yondashuv sanoat tarmoqlarining geografik joylashuvi nafaqat iqtisodiy, balki institutsional, ijtimoiy va ekologik omillarga ham tayanishini ko‘rsatadi.

Mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasida ishlab chiqarishni optimal joylashtirishga oid yondashuvlar “raqamli infratuzilma” va “barqaror sanoat klasterlari” kontsepsiyalari

bilan boyidi. Jahon iqtisodiy forumining (WEF) “Future of Industrial Regions” hisobotida qayd etilishicha, ishlab chiqarishning joylashuv samaradorligi to‘g‘ridan to‘g‘ri raqamli texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika tizimlarining muvofiqlashtirilganligi va energiya samaradorligining darajasi bilan belgilanadi [2]. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, sanoat korxonalarining muvaffaqiyatli joylashuvi ularning xarajatlar tuzilmasiga 10-15 foiz darajada ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, ishlab chiqarish rentabelligini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, joylashtirish samaradorligini oshirish mintaqaviy raqobatbardoshlik va innovatsion o‘shishning asosi sifatida qaraladi.

OECDning “Industrial Transitions in Regions” hisobotida sanoat joylashuvi siyosatini qayta ko‘rib chiqish global iqtisodiyotning transformatsion bosqichida eng muhim yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rsatilib, bu jarayon resurslarni qayta taqsimlash va yangi ishlab chiqarish zonalarini tashkil etish orqali iqtisodiy o‘shishni hududlar bo‘yicha muvozanatlashga xizmat qilishi ta’kidlanadi [3]. Xususan, OECD mutaxassislari ishlab chiqargan modelga ko‘ra, ishlab chiqarish korxonalarini transport tarmoqlari, iste‘mol bozorlari va xomashyo bazasiga yaqin joylashtirish mintaqaviy yalpi mahsulot o‘shishini o‘rtacha 0,6-0,8 foizga tezlashtiradi. Shu bilan birga, sanoat zonalarining barqaror joylashuvi hududiy infratuzilmaning samaradorligini 25 foizgacha oshiradi.

O‘zbekiston sharoitida ham bu yo‘nalishda tub islohotlar olib borilmoqda. Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” farmonida sanoatni mintaqalar bo‘yicha diversifikatsiyalash, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda tabiiy va mehnat resurslari nisbatini inobatga olish, shuningdek, yangi sanoat klasterlarini shakllantirish vazifalari belgilangan [4].

UNIDO tomonidan amalga oshirilayotgan “Transforming Industrial Zones in Uzbekistan” loyihasi doirasida esa sanoat zonalarini barqaror rivojlanish tamoyillari asosida qayta joylashtirish strategiyasi ishlab chiqildi. Loyiha xulosalariga ko‘ra, zamonaviy “eco-industrial zone” konsepsiyasiga asoslangan joylashtirish siyosati ishlab chiqarish chiqindilarini 20 foizgacha kamaytiradi, energetik samaradorlikni esa 30 foizga oshiradi [5]. Shu sababli, joylashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari iqtisodiy foyda bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalarini hududiy joylashtirish masalalari iqtisodiyot fanida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinmoqda. Mazkur yo‘nalishning nazariy asoslari A. Weber tomonidan ishlab chiqilgan sanoatni joylashtirish nazariyasida shakllantirilgan bo‘lib, unda ishlab chiqarish korxonalarining optimal joylashuvi transport xarajatlari, mehnat resurslari va aglomeratsiya omillari bilan izohlangan [1]. Ushbu yondashuv keyinchalik hududiy iqtisodiyot va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo‘yicha tadqiqotlarning metodologik poydevoriga aylandi.

Sanoatni hududiy tashkil etish masalalari raqamli transformatsiya, logistika tizimlari va barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinmoqda. Jahon iqtisodiy forumi (WEF) sanoat hududlarini rivojlantirishda

transport-logistika infratuzilmasi, raqamli texnologiyalar va energiya samaradorligi ishlab chiqarish joylashuvining asosiy determinantlari ekanligini qayd etgan [2]. OECD tadqiqotlarida esa sanoat korxonalarini hududiy resurslar, iste'mol bozorlari va transport tarmoqlariga yaqin joylashtirish mintaqalar iqtisodiy o'sishini jadallashtirishi hamda hududiy nomutanosibliklarni kamaytirishi ilmiy jihatdan asoslangan [3].

O'zbekistonda sanoatni hududiy rivojlantirish va ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da sanoatni hududlar kesimida diversifikatsiya qilish, yangi sanoat zonalarini rivojlantirish hamda investitsiyalarni hududiy mutanosib joylashtirish vazifalari belgilab berilgan [4]. UNIDO ekspertlari ham O'zbekistonda sanoat zonalarini barqaror rivojlantirish va ekologik samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan [5].

Hududiy rivojlanish va sanoat joylashtirish masalalari bo'yicha mahalliy tadqiqotlarda ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etish, sanoat ixtisoslashuvi hamda investitsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorligi keng yoritilgan. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari sanoat zonalarini, investitsiyalar va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining hududlar kesimidagi o'zgarishlarini tahlil qilish uchun muhim axborot manbai bo'lib xizmat qilgan [6].

Sanoat korxonalarini hududiy joylashtirish samaradorligini baholashda fazoviy iqtisodiyot va ekonometrik modellashirish usullari alohida ahamiyat kasb etadi. L. Anselin fazoviy bog'liqlikni baholashning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo'lsa [7], B. Baltagi panel ma'lumotlar ekonometrik tahlilining ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirgan [8]. A. Venables rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat joylashuvi va transport infratuzilmasining iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini asoslagan [9; 13]. J. Henderson shaharlarning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va sanoat konsentratsiyasining hududiy o'sishga ta'sirini yoritgan [10], R. Lucas esa ishlab chiqarish omillari, inson kapitali va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni nazariy jihatdan izohlagan [11]. Guo va Liu hududiy rivojlanishni fazoviy ekonometrik modellar asosida baholab, sanoat joylashuvining mintaqaviy iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini empirik jihatdan tasdiqlagan [14].

TAHLIL VA NATIJALAR

Shunday qilib, sanoat korxonalarini joylashtirish samaradorligini oshirishning mintaqaviy mexanizmlari zamonaviy iqtisodiy siyosatning markazida turibdi. Bu yo'nalishda asosiy e'tibor sanoat-logistika uzellarini rivojlantirish, ishlab chiqarish tarmoqlarini innovatsion klasterlarga birlashtirish va hududiy resurslardan kompleks foydalanish tizimini yaratishga qaratilmoqda. Namangan viloyati misolida olib borilayotgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish korxonalarining hududiy taqsimoti iqtisodiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish va raqobatbardosh sanoat bazasini shakllantirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Joylashtirish samaradorligi o'zgarishlari korxonalar sonining o'sishi, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi va eksport salohiyatining ortishi orqali aniqlangan. Jadvallar viloyat sanoatining hududiy tuzilmasi, joylashtirish mexanizmlari va

tumanlar o'rtasidagi raqobatbardoshlik darajasining o'zgarish tendensiyalarini kompleks tarzda yoritadi.

1-jadval.

Namangan viloyati sanoat joylashuvi samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar¹

Yil	Sanoat zonalari soni	Infratuzilma ta'minoti, foizda	Sanoat zonalariga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar (mlrd so'm)	Ish bilan bandlar soni (ming kishi)	Mehnat unumdorligi (mln so'm/ishchi)
2017	14	65,4	732,1	73,2	92,5
2018	16	68,9	860,4	77,5	108,7
2019	18	71,6	1012,3	82,1	125,4
2020	21	74,8	1186,0	87,4	142,6
2021	24	78,2	1365,5	93,0	165,3
2022	27	81,0	1583,4	98,5	181,9
2023	31	84,7	1849,7	104,2	205,6
2024	34	87,3	2014,2	110,0	228,4

1-jadval ma'lumotlari Namangan viloyatida sanoat joylashtirish samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillar - sanoat zonalari soni, infratuzilma ta'minoti, investitsion oqimlar, ish bilan bandlik va mehnat unumdorligi - o'rtasidagi kuchli korrelyatsion bog'liqlikni ko'rsatadi. Sanoat zonalari soni 2017-yildagi 14 tadan 2024-yilda 34 taga yetib, 2,4 barobarga oshgan. Infratuzilma ta'minoti darajasi 65,4 foizdan 87,3 foizgacha yaxshilangan. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 732,1 milliard so'mdan 2,014 trillion so'mgacha ko'payib, 2,75 barobar o'sishni ta'minlagan. Bu o'zgarishlar sanoatni hududiy joylashtirish samaradorligining kuchayganidan dalolat beradi. Ish bilan bandlar soni 73,2 ming kishidan 110 ming kishiga yetib, 50 foizga o'sdi, mehnat unumdorligi esa 92,5 million so'mdan 228,4 million so'mgacha oshib, 2,47 barobarga ko'paygan. Ushbu raqamlar Namangan viloyati iqtisodiyotining ishlab chiqarish salohiyati kengayib, joylashtirish mexanizmlari investitsion faollik va bandlik siyosati bilan muvofiqlashayotganini ko'rsatadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, joylashtirish samaradorligi indikatorlari o'zaro muvofiqlashgan holda harakat qilmoqda: investitsiyalar o'sishi infratuzilma rivojlanishini tezlashtirgan, bu esa yangi sanoat zonalarini shakllantirish imkonini bergan. Hududiy joylashtirishda transport-logistika infratuzilmasining takomillashuvi (ayniqsa Namangan-Toshkent avtomagistral yo'nalishida) va energiya ta'minotining barqarorlashuvi ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishiga zamin yaratgan. Shu bilan birga, infratuzilma rivoji mehnat bozorini jonlantirib, yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim rol o'ynagan.

2-jadval ma'lumotlari Namangan viloyatining tumanlari bo'yicha sanoat joylashtirish samaradorligi indeksining barqaror o'sish dinamikasini aks ettiradi. Raqamlar shuni ko'rsatadiki, hududlar o'rtasida sanoat rivojlanishi tafovutli, biroq ijobiy tendensiyaga ega. Raqobatbardoshlik indeksi 2017-yilda o'rtacha 0,41 bo'lgan

¹ Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

bo'lsa, 2024-yilga kelib 0,66 gacha oshib, 1,6 barobarlik o'sishni namoyon etdi. Eng yuqori natijalar Namangan shahri (0,84), Pop (0,80) va Norin (0,78) hududlariga to'g'ri keladi. Ushbu hududlarda ishlab chiqarish hajmining kengayishi, transport-logistika infratuzilmasining yaxshilanishi hamda innovatsion faol korxonalar ulushining ortishi sanoat joylashtirish samaradorligining asosiy drayverlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Eng tez o'sish sur'atlari Chortoq (+75 foiz) va Uchqo'rg'on (+80,6 foiz) hududlarida qayd etilgan bo'lib, bu joylarda kichik sanoat zonalar faoliyatining faollashganini anglatadi.

2-jadval

Namangan viloyati tumanlari bo'yicha sanoat joylashtirish samaradorligi indeksi¹

Hudud	Yillar			O'zgarish, foizda	Indeks toifasi
	2017	2020	2024		
Namangan sh.	0,58	0,70	0,84	44,8	Yuqori
Pop	0,50	0,64	0,80	60,0	Yuqori
Norin	0,47	0,61	0,78	65,9	Yuqori
To'raqo'rg'on	0,45	0,59	0,75	66,6	O'rta
Chortoq	0,40	0,53	0,70	75,0	O'rta
Uychi	0,38	0,50	0,66	73,6	O'rta
Kosonsoy	0,36	0,48	0,63	75,0	O'rta
Yangiqo'rg'on	0,34	0,46	0,61	79,4	O'rta
Uchqo'rg'on	0,31	0,42	0,56	80,6	Past
Mingbuloq	0,29	0,40	0,54	86,2	Past

Ushbu natijalar tahlili sanoat joylashtirish samaradorligi indeksining shakllanishida uchta asosiy omil - ishlab chiqarish zichligi, innovatsion faoliyat va infratuzilma sinergiyasi - hal qiluvchi rol o'ynayotganini tasdiqlaydi. Namangan shahri, Pop va Norin hududlarida ishlab chiqarish aglomeratsiyasi shakllanib, bu joylarda korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya kuchaygan, shu sababli ishlab chiqarish samaradorligi yuqori darajada saqlanmoqda. Tahlil natijalariga ko'ra, indeks o'sishining 42,7 foizi innovatsion faoliyat, 31,4 foizi eksport diversifikatsiyasi va 25,9 foizi ishlab chiqarish unumdorligining ortishi bilan izohlanadi. Bu esa joylashtirish samaradorligini oshirishda innovatsion iqtisodiyot va transport-logistika integratsiyasining o'zaro ta'sirini ko'rsatadi.

Namangan viloyati hududlari kesimida sanoat rivojlanishining fazoviy-ekonometrik ko'rsatkichlari (normallashtirilgan indekslar) tahlili hududiy iqtisodiy tizimning yuqori darajadagi differensiallashuvini va kuchli markazlashuv tendensiyasini tasdiqlaydi. Eng yuqori kompozit indeks Namangan shahrida $CI = 0,93$ bo'lib, bu hudud sanoat hajmi indeksi (0,95), jon boshiga ishlab chiqarish ko'rsatkichi (0,92) hamda fazoviy ulush (0,96) bo'yicha mutlaq yetakchi ekanligini ko'rsatadi. To'raqo'rg'on (0,79), Chust (0,75) va Kosonsoy (0,71) tumanlari ikkilamchi o'sish

¹ Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi hamda UNIDO Industrial Zoning Efficiency ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

qutblari sifatida shakllanib, ularda tarmoq diversifikatsiyasi (0,81; 0,85; 0,77) va fazoviy integratsiya darajasi nisbatan yuqori bo'lib, bu hududlar aglomeratsion iqtisodiyot elementlarini rivojlantirayotganini anglatadi. Aksincha, Norin (0,39), Uchqo'rg'on (0,37), Chortoq (0,36) va Mingbuloq (0,41) tumanlarida past indeks qiymatlari kuzatilib, bu hududlarda sanoatning fazoviy izolyatsiyasi va ishlab chiqarish bazasining yetarli darajada diversifikatsiyalanmaganligi aniq namoyon bo'ladi. Ushbu tafovutlar hududlar o'rtasida resurslar va ishlab chiqarish quvvatlarining notekis taqsimlanganligini ko'rsatadi.

3-jadval

Namangan viloyati tumanlari bo'yicha sanoat joylashtirish samaradorligi indeksi¹

Hududlar nomi	Sanoat hajmi indeksi	Aholi jon boshiga ulush	Diversifikatsiya indeksi	Fazoviy ulush	Kompozit indeks	Rivojlanish darajasi
Namangan sh	0.95	0.92	0.88	0.96	0.93	Juda yuqori
To'raqo'rg'on	0.82	0.75	0.81	0.78	0.79	Yuqori
Chust	0.76	0.71	0.85	0.69	0.75	Yuqori
Kosonsoy	0.73	0.69	0.77	0.65	0.71	Yuqori
Uychi	0.61	0.58	0.62	0.55	0.59	O'rtacha
Yangiqo'rg'on	0.54	0.52	0.58	0.49	0.53	O'rtacha
Namangan t	0.51	0.48	0.55	0.46	0.50	O'rtacha
Pop	0.47	0.44	0.50	0.43	0.46	Past
Mingbuloq	0.43	0.40	0.45	0.38	0.41	Past
Norin	0.41	0.37	0.42	0.35	0.39	Past
Uchqo'rg'on	0.39	0.36	0.40	0.33	0.37	Past
Chortoq	0.38	0.35	0.41	0.32	0.36	Past

Fazoviy-ekonometrik tarkibiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sanoat rivojlanishidagi o'zgarishlarning asosiy determinantlari sifatida fazoviy ulush, diversifikatsiya indeksi va jon boshiga ishlab chiqarish ko'rsatkichi ustun ahamiyatga ega. Xususan, yuqori indeksli hududlarda ushbu uch komponent o'rtasida muvozanat kuzatiladi, bu esa iqtisodiy samaradorlikning oshishiga olib kelmoqda, past indeksli hududlarda esa struktural nomutanosiblik mavjud bo'lib, ko'rsatkichlarining pastligi ishlab chiqarishning lokalizatsiya darajasini cheklab qo'ymoqda. Natijalar fazoviy ekonometrik nuqtai nazardan qaralganda, hududlar o'rtasida kuchli spatial dependence mavjudligini va bu jarayon SAR modelida ifodalangan spillover effektlar ($\rho \approx 0,41$) orqali izohlanishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, SEM komponenti ($\lambda \approx 0,46$) hududiy tafovutlarning faqat iqtisodiy emas, balki institutsional va infratuzilmaviy omillar bilan ham bog'liqligini tasdiqlaydi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida Namangan viloyatida sanoat korxonalarini joylashtirish samaradorligini oshirishning mintaqaviy iqtisodiy, infratuzilmaviy va ijtimoiy omillarini tizimli tahlil qilish imkonini beruvchi ilmiy model ishlab chiqildi.

¹ Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Tahlil jarayonida ishlab chiqarish hajmi, korxonalar zichligi, investitsion faollik, infratuzilma ta'minoti, mehnat unumdorligi va innovatsion faoliyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik aniqlanib, sanoat joylashtirish samaradorligi indeksi (LIE) asosida baholandi. Tadqiqot mintaqaviy rivojlanish siyosatida ishlab chiqarish quvvatlarini hududlar bo'yicha optimal taqsimlash, iqtisodiy muvozanatni ta'minlash va resurslardan kompleks foydalanishni rag'batlantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Quyidagi ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ushbu yo'nalishdagi strategik qarorlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar sanoat zonalarini sonining 2,4 barobarga ko'paygani, investitsion oqimlar hajmining 2,75 barobarga oshgani va infratuzilma ta'minoti darajasining 65,4 foizdan 87,3 foizgacha yaxshilangani joylashtirish samaradorligining asosiy drayveri ekanini ko'rsatdi. Shu bois, yangi sanoat zonalarini tashkil etishda transport-logistika tarmoqlariga yaqinlik, energiya ta'minoti barqarorligi va ekologik barqarorlik tamoyillarini birlashtirgan "aqlli joylashtirish modeli"ni tatbiq etish zarur. Bu model sanoat zonalarini rentabelligini oshiradi, ishlab chiqarish xarajatlarini 10-15 foizgacha kamaytiradi va investitsion xavflarni pasaytiradi.

Tumanlar kesimida sanoat joylashtirish samaradorligi indeksining o'sish tendensiyasi iqtisodiy markazlashuv jarayonini tasdiqlaydi. Eng yuqori natijalar Namangan shahri (0,84), Pop (0,80) va Norin (0,78) hududlarida qayd etilgan bo'lsa, nisbatan past ko'rsatkichlar Kosonsoy (0,63) va Mingbuloq (0,54) hududlariga to'g'ri keladi. Shu bois, sanoat joylashtirish siyosatini mintaqaviy differensiallashtirish maqsadga muvofiq. Bunda iqtisodiy zaif hududlarga soliq imtiyozlari, investitsion grantlar va davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma loyihalarini amalga oshirish mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Bu yondashuv hududiy sanoat klasterlarining muvozanatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Sanoat joylashtirish samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlari sifatida "sanoat-logistik uzellar" tizimini rivojlantirish, raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish va "yashil sanoat zonalarini"ni shakllantirish zarur. Ushbu yondashuv ishlab chiqarishning ekologik va iqtisodiy jihatdan barqaror modelini yaratadi. Natijada, sanoat zonalarida chiqindisiz ishlab chiqarish ulushi 2030-yilgacha 40 foizgacha yetishi, energiya samaradorligi esa 30 foizga oshishi mumkin. Shu bilan birga, innovatsion korxonalar ulushini 15 foizdan ortiq darajaga yetkazish Namangan viloyatini O'zbekistonning eng raqobatbardosh sanoat hududlaridan biriga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Weber, A. (1929). Theory of the Location of Industries. Chicago: University of Chicago Press.
2. World Economic Forum (2023). The Future of Industrial Regions: Pathways for Balanced Growth. Geneva.
3. OECD (2022). Industrial Transitions in Regions: Policies for Inclusive and Sustainable Development. Paris: OECD Publishing.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
5. UNIDO (2023). Transforming Industrial Zones in Uzbekistan: A Step Towards Sustainability. Vienna.
6. Namangan viloyati Statistika boshqarmasining 2020-2025-yillik xisobotlari.
7. Anselin, L. Spatial Econometrics: Methods and Models. Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 1988.
8. Baltagi, B. H. Econometric Analysis of Panel Data. Chichester: John Wiley & Sons, 2005.
9. Venables, A. J. Industrial location in developing countries // World Bank Research Observer. 2008. Vol. 23, No. 2. Pp. 219-246.
10. Henderson, J. V. Cities and development // Journal of Economic Perspectives. 2010. Vol. 24, No. 1. Pp. 143-158.
11. Lucas, R. E. On the mechanics of economic development // Journal of Monetary Economics. 1988. Vol. 22, No. 1. Pp. 3-42.
12. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). Industrial Development Report: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World. Vienna: UNIDO, 2022.
13. Venables, A. J. Evaluating urban transport improvements: Cost-benefit analysis in the presence of agglomeration and income taxation // Journal of Transport Economics and Policy. 2007. Vol. 41, No. 2. Pp. 173-188.
14. Guo, L., & Liu, Y. Urban-industrial development and regional economic growth: A spatial econometric approach // SAGE Open. 2022. Vol. 12, No. 3.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali



Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. FOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**